

QO'SHNISINI TUNAGAN O'G'RI!



QO'SHNISINI TUNAGAN O'G'RI!

Nurilla tuppa-tuzukkina “Fayz” bozorida savdo qilib, ro'zg'or tirikchiligiga yordamlashib yuruvdi. Erta ketib, kech kelib savdo yaxshi bo'lgan kunlar bozorlik qilib kelishni kanda qilmasdi.

Shu kuni uyga kelsa, hech kim yo'q. Surishtirsa to'rt, besh hovli naridagi bir qarindoshi to'y qilayotgan ekan. Uydagilari o'sha qarindoshinikiga ketibdi. Bunday qarasa yon qo'shnisi Murod aka ham bolalari bilan o'sha tomonga ketishibdi.

Atrofdan hech kim yo'q. Uning ichiga shayton kirdi. Bu yilgi tomorqasidan chiqqan hosilini mo'maygina pullagan, to'y qilish uchun yig'ib yurgan yon qo'shnisi Murod akaning pulini o'marishni reja qildi.

Oshxonadagi pichoqni oldida sekin, bekinib hamsoyasining uyi tomon yurdi. Hovliga kirib, u tomon, bu tomonga qarasa hech kim yo'q. Uyi ichiga kirib, mehmonxonasiga qarasa eshigi qulflangan turibdi. Uni pichoq bilan buzib ochdida, ichkariga kirsam uchta sandiq bo'lib, sandiqlardan birining eshigi qulflangan holda turibdi. Shu qulfni ham

qo'lidagi pichoq bilan buzdi. Sandiqning ichidagini titkilab ko'rayotgan chog'i qo'li o'ralgan narsaga tegdi. Sandiqdan tashqariga chiqarib ko'rsa, aynan u izlagan pul ekan. Tugunni o'zi bilan olib chiqib ketdi. Uyiga o'tib, hech kim yo'qligidan foydalanib, haligi o'g'irlangan pullarni erinmay sanab chiqdi. Yigirma bir million uch yuz ming so'm va yuz "ko'ki" ham bor ekan. Nurilla dunyo topganday o'zida yo'q xursand. Ikki yarim millionini bo'lak ajratdida, buni onasiga savdo pulim ro'zg'orga ishlating deb bermoqchi bo'ldi.

Qolganlarini taxlab, yana qayta boshqa qog'ozga o'rab, shu yerlik o'rtog'i Qo'ldoshlarnikiga olib ketdi. Borib, oshna shu omonatim senda tursin, kerak bo'lganida olaman, - deb unga qoldirib qaytdi. Yonboshlab televizorga qarab yotgan chog'i uydagilari birin-ketin kirib kelishdi. Onamga beraman deb ajratib qo'ygan pullarni onasiga berdi. Shu savdodan orttirganim uyga biror narsa olasizda, - deb onasini xursand qilib qo'ydi. Onasi ham pul topar o'g'lini uzoqdan-uzoq alqadi.

Tong otgach, qo'shnilari ham uyqudan turishib, u yoq - bu yoqni yig'ishtirib, uy bekasi Nigora opa ichkariga kirib qarasa mehmonxona ochiq, ichkaridagi sandiq ham ochiq, yig'ib qo'ygan pullari ham joyida yo'q. Birdan entikib otilib chiqib, uyga o'g'ri kiribdi, hammasini olib ketibdi, - deb dod soldi. Murod aka ham otilib ichkariga kirsam, shu ahvol! U to'g'ri ichki ishlarga borib, xabar qildi.

Tezkor guruh xodimlari ham anoyi emas ekan. Ular sandiqdan, eshik atrofidan barmoq izlarini olib, laboratoriyada ishlov berib, gumon qilgan qo'shnisining ichki ishlardagi barmoq izi bilan solishtirsa bir xil chiqdi.

"Fayz"ga borib Nurillani topishdi-da, biz bilan ichki ishlarga borasiz, ba'zi bir narsaga aniqlik kiritmoqchimiz deyishdi. U shu yerning o'zida bor gapni aytib berdi.

Oshnasidagi pulni ham, onasidagisini ham olishdi. Onasining quvonchi uzoqqa bormadi. Idorada to'lg'azilgan qog'ozlarga qo'l quya turib, meni bir "shayton" yo'ldan urdi-da, - deya oldi xolos.

Hali uylanishga ham ulgurmagan Nurilla Mamatovga sudlandi degan tamg'a bosildi.

"Qaqaydi"liklar unga qiz bermasalar ham kerak.

"Shaytonga qul bo'lmoq, - yo'ldan chiqmoqdir" degan so'zlar Nurilla Mamatovga o'xshaganlarga nisbatan aytilgan bo'lsa, ne ajab.

Surxondaryo viloyat sudi jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hayati sudyasi

S.Suvonqulov